

PREMENOPAUZA DAVRIDAGI AYOLLARDA ENDOMETRIY GIPERPLASTIK JARAYONLARI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY PATOGENETIK OMILLARNING AHAMIYATI

Norboyeva Nafosat Atabekovna
Urganch davlat tibbiyot instituti

Dolzarliligi. Bugungi kunda endometriy giperplastik jarayonlari reproduktiv salomatlikni saqlash va onkoginekologik kasalliklarning oldini olishda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, premenopauza davridagi ayollarda organizmda yuz beradigan gormonal o'zgarishlar natijasida endometriy proliferativ jarayonlarining rivojlanish xavfi sezilarli darajada ortadi.

Ushbu patologiya nafaqat anormal bachadon qon ketishlari va reproduktiv funksiyaning buzilishiga sabab bo'ladi, balki ayrim hollarda endometriy saratonining rivojlanishi uchun fon holati sifatida ham namoyon bo'ladi.

Endometriy hujayralarida estrogen va progesteron retseptorlari ekspressiyasining o'zgarishi, hujayra proliferatsiyasi va apoptoz jarayonlari o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, shuningdek, genetik va metabolik omillar kasallikning rivojlanishi hamda malign transformatsiyasida muhim o'rin tutishi aniqlangan.

Bundan tashqari, semizlik, qandli diabet, insulinrezistentlik, metabolik sindrom va surunkali anovulyatsiya kabi omillar endometriy giperplastik jarayonlarining rivojlanish xavfini oshiruvchi asosiy klinik omillar sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur omillarning o'zaro bog'liqligini aniqlash kasallikni erta tashxislash, individual prognozlash va samarali davolash strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqsadi: premenopauza davridagi ayollarda endometriy giperplastik jarayonlari rivojlanishida gormonal, molekulyar-genetik va metabolik patogenetik omillarning ahamiyatini tahlil qilish hamda ularning kasallikni erta aniqlash va samarali davolash taktikasini tanlashdagi o'rnini aniqlash.

Material va metodlar. Tadqiqotda premenopauza davridagi ayollarda endometriy giperplastik jarayonlarining etiopatogenetik xususiyatlariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, klinik tavsiyalar hamda zamonaviy tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil jarayonida tizimli yondashuv, ilmiy manbalarni umumlashtirish, qiyosiy-tahliliy, statistik va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar asosida endometriy giperplaziyasi rivojlanishida gormonal, molekulyar-genetik va metabolik omillarning o'rnini baholandi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, premenopauza davridagi ayollarda endometriy giperplastik jarayonlarining rivojlanishida gormonal disbalans, estrogen retseptorlari





ekspressiyasining o'zgarishi, semizlik, qandli diabet va insulinrezistentlik asosiy patogenetik omillar hisoblanadi. Zamonaviy molekulyar-biologik va immunogistokimyoviy tekshiruv usullaridan foydalanish kasallikni erta aniqlash, malign transformatsiya xavfini baholash hamda individual davolash taktikasini tanlash imkoniyatini oshiradi.

Xulosa. Premenopauza davridagi ayollarda endometriy giperplastik jarayonlarining rivojlanishida gormonal, molekulyar-genetik va metabolik omillar muhim ahamiyatga ega.

Ushbu omillarni kompleks baholash kasallikni erta tashxislash, malign transformatsiya xavfini aniqlash hamda individual davolash va profilaktika choralarini takomillashtirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Ismailov S.I., Axmedova M.A. Endometriy giperplastik jarayonlarini tashxislash va davolashning zamonaviy yondashuvlari. Tibbiyotda yangi kun jurnali. – 2023. – №4. – B. 85-90.
2. Rasulova N.R., Yuldasheva M.Sh. Premenopauza davridagi ayollarda endometriy patologiyasining klinik xususiyatlari. Biologiya va tibbiyot muammolari jurnali. – 2024. – №2. – B. 112-116.
3. Norboyeva D.R., Matkarimov Sh.A. Endometriy giperplaziyasida xavf omillari va diagnostika usullari. O'zbekiston tibbiyot jurnali. – 2024. – №3. – B. 47-52.

